

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-mart)

2020-yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1 844 386,4 mln. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 % ga oʻsdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 339 290,8 mln. soʻmni (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 81,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 505 095,6 mln. soʻmni (oʻsish surʼati 107,0 %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi 276 112,7 mln. soʻmni (oʻsish surʼati 101,0 %) tashkil etdi.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI HAMDA OʻSISH SURʼATLARI

| | Jami (mln. soʻm) | Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da | Yirik korxonalar (mln. soʻm) | Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da |
|--------------------|---------------------|---|---------------------------------|---|
| Viloyat | 1 844 386,4 | 101,3 | 339 290,8 | 81,9 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | |
| Urganch | 664 750,2 | 91,3 | 280 388,3 | 78,7 |
| Xiva | 56 256,9 | 107,3 | 6 103,6 | 182,7 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Bogʻot | 108 352,4 | 102,2 | 6 658,2 | 87,2 |
| Gurlan | 158 266,3 | 134,9 | 1 999,4 | 85,6 |
| Qoʻshkoʻpir | 75 394,4 | 102,4 | 1 180,0 | 105,3 |
| Urganch | 156 842,7 | 107,6 | 14 339,1 | 127,6 |
| Hazorasp | 184 104,1 | 104,9 | 4 983,8 | 87,4 |
| Xonqa | 124 864,6 | 100,8 | 16 097,4 | 82,0 |
| Xiva | 35 226,2 | 102,7 | 312,6 | 69,3 |
| Shovot | 138 984,7 | 106,0 | 5 438,1 | 101,3 |
| Yangiariq | 89 543,6 | 109,4 | 1 605,1 | 184,3 |
| Yangibozor | 51 800,2 | 103,3 | 185,2 | 113,8 |

Dastlabki maʼlumotlar*


ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Urganch shahri 36,0 % ulush bilan 664 750,2 mln. soʻmni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Xiva tumani 1,9 % ulush bilan 35 226,2 mln. soʻmni tashkil etdi.


ENG YUQORI ULUSH



ENG QUIYI ULUSH




HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (mlrd. soʻm)



2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning ayrim hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining oʻsish surʼatlari kuzatilib, yuqori oʻsish surʼatlari Gurlan tuman, Yangiariq tuman, Urganch tuman va Xiva shaharlarida qayd etildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASINING O'QISH SUR'ATLARI, % da




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 81,9 % ni hamda 339 290,8 mln. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 18,4 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 505 095,6 mln. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 7,0 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 81,6 % ga teng kelmoqda.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI, % da




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING ULUSHI, % da




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Yangibozor (99,6 %), Xiva (99,1 %), Gurlan (98,7 %) va Qo'shko'pir (98,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 18,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (42,2 %), Xonqa tumani (12,9 %) va Xiva shahrida (10,8 %) kuzatilgan.

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING ENG YUQORI ULUSHI



YIRIK KORXONALARNING ENG YUQORI ULUSHI




KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI VA YIRIK KORXONALARNING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI HAJMI

| | Yirik korxonalar (mln. soʻm) | Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mln. soʻm) | Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da |
|--------------------|---------------------------------|--|--|--|
| Viloyat | 339 290,8 | 81,9 | 1 505 095,6 | 107,0 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | |
| Urganch | 280 388,3 | 78,7 | 384 361,8 | 103,4 |
| Xiva | 6 103,6 | 182,7 | 50 153,4 | 102,1 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Bogʻot | 6 658,2 | 87,2 | 101 694,2 | 103,3 |
| Gurlan | 1 999,4 | 85,6 | 156 266,9 | 135,9 |
| Qoʻshkoʻpir | 1 180,0 | 105,3 | 74 214,4 | 102,3 |
| Urganch | 14 339,1 | 127,6 | 142 503,6 | 105,9 |
| Hazorasp | 4 983,8 | 87,4 | 179 120,4 | 105,4 |
| Xonqa | 16 097,4 | 82,0 | 108 767,2 | 104,4 |
| Xiva | 312,6 | 69,3 | 34 913,6 | 103,1 |
| Shovot | 5 438,1 | 101,3 | 133 546,6 | 106,1 |
| Yangiariq | 1 605,1 | 184,3 | 87 938,5 | 108,6 |
| Yangibozor | 185,2 | 113,8 | 51 615,0 | 103,3 |

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʻra, 1 505 095,6 mln. soʻmni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 7,0 % ga oʻsdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 81,6 % ni tashkil etdi.

HUDUDLARDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING JAMI CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, % da



AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

| | Ming. so'm | O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da |
|-------------------|--------------|---|
| Viloyat | 986,7 | 99,7 |
| <i>shaharlar:</i> | | |
| Urganch | 4 616,3 | 90,0 |
| Xiva | 609,5 | 105,6 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Bog'ot | 660,7 | 100,4 |
| Gurlan | 1 070,1 | 132,9 |
| Qo'shko'pir | 438,8 | 100,5 |
| Urganch | 792,5 | 105,6 |
| Hazorasp | 741,8 | 103,1 |
| Xonqa | 672,0 | 99,3 |
| Xiva | 242,8 | 101,0 |
| Shovot | 820,0 | 104,1 |
| Yangiariq | 773,9 | 107,7 |
| Yangibozor | 594,7 | 101,7 |

2020-yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 986,7 ming. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,7 % ni tashkil qilgan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha

hududlarida oʻsish koʻrsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori koʻrsatkichlar Urganch shahri

(4 616,3 ming. soʻm), Gurlan (1 070,1 ming. soʻm) Shovot (820,0 ming. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi boʻyicha eng kam koʻrsatkichlar Xiva (242,8 ming. soʻm), Qoʻshkoʻpir (438,8 ming. soʻm) va Yangibozor (594,7 ming. soʻm) tumanlarida qayd etilgan.

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA OʻSISH SURʼATLARI

| | Jami (mln. soʻm) | Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da | Yirik korxonalar (mln. soʻm) | Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, (mln. soʻm) | Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da |
|--------------------|---------------------|--|------------------------------------|--|---|---|
| Viloyat | 21 076,3 | 88,1 | 790,1 | 76,2 | 20 286,1 | 88,6 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | | | |
| Urganch | 8 929,8 | 88,4 | 606,6 | 70,4 | 8 323,2 | 90,1 |
| Xiva | 1 449,5 | 87,6 | - | - | 1 449,5 | 87,6 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Bogʻot | 674,5 | 89,3 | - | - | 674,5 | 89,3 |
| Gurlan | 620,8 | 86,4 | - | - | 620,8 | 86,4 |
| Qoʻshkoʻpir | 407,1 | 92,4 | - | - | 407,1 | 92,4 |
| Urganch | 4 514,8 | 85,9 | 183,6 | 105,0 | 4 331,3 | 85,2 |
| Hazorasp | 1 142,7 | 89,0 | - | - | 1 142,7 | 89,0 |
| Xonqa | 889,5 | 90,1 | - | - | 889,5 | 90,1 |
| Xiva | 867,3 | 87,6 | - | - | 867,3 | 87,6 |
| Shovot | 798,6 | 91,1 | - | - | 798,6 | 91,1 |
| Yangiariq | 325,3 | 87,5 | - | - | 325,3 | 87,5 |
| Yangibozor | 456,3 | 91,3 | - | - | 456,3 | 91,3 |

2020-yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,7 % ni tashkil etib, 790,1 mln. soʻmga yetdi va 2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 76,2 % boʻlib, bunda jami umumiy

ovqatlanish aylanmasining 96,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-mart)

2020-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 380 559,5 mln. so'mni hamda 2019-yilning shu davriga nisbatan 71,1 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida kichik biznes subyektlari hajmi 2020-yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra 289 863,7 mln. so'm (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,4 %) ni tashkil qilgan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 76,2 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Bog'ot va Shovot tumanlarida (100,0 %) yuqori bo'lgan.

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, % da




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasi ulushi 23,8 % ni tashkil etib, yirik korxonalarda eng yuqori ulush Urganch tumanida (42,1 %) va Urganch shahrida (25,1 %) kuzatildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI

| | Jami (mln. so‘m) | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da | Yirik korxonalar (mln. so‘m) | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da | Kichik biznes subyektlari (mln. so‘m) | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da |
|--------------------|---------------------|--|------------------------------------|--|---|---|
| Viloyat | 380 559,5 | 71,1 | 90 695,8 | 90,7 | 289 863,7 | 98,4 |
| shaharlar: | | | | | | |
| Urganch | 149 346,4 | 102,7 | 37 539,1 | 37,5 | 111 807,3 | 99,3 |
| Xiva | 17 983,8 | 98,5 | 191,1 | - | 17 792,7 | 97,5 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Bog‘ot | 6 670,3 | 99,0 | 3,0 | - | 6 667,3 | 97,5 |
| Gurlan | 8 145,5 | 101,7 | 43,2 | 9,7 m. | 8 102,3 | 99,0 |
| Qo‘shko‘pir | 1 180,8 | 97,1 | 12,8 | 101,6 | 1 168,0 | 101,2 |
| Urganch | 122 756,2 | 43,9 | 51 713,9 | 24,9 | 71 042,3 | 97,1 |
| Hazorasp | 8 142,2 | 97,7 | 12,0 | 26,3 | 8 130,2 | 98,4 |
| Xonqa | 23 063,1 | 101,7 | 1 120,2 | 113,7 m. | 21 942,9 | 98,1 |
| Xiva | 9 203,3 | 97,8 | 41,7 | - | 9 161,7 | 96,8 |
| Shovot | 10 339,3 | 96,5 | 4,3 | - | 10 335,0 | 97,7 |
| Yangiariq | 7 592,0 | 98,5 | 5,3 | 74,3 | 7 586,7 | 97,3 |
| Yangibozor | 16 136,7 | 95,9 | 9,3 | - | 16 127,4 | 98,5 |

HUDUDLAR KESIMIDA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASINING O‘ZGARISH SUR‘ATLARI, % da



Ulgurji tovar aylanmasida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur‘atlari Urganch shahrida (102,7 %), Gurlan tumanida (101,7 %) va Xonqa tumanida (101,7 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo‘limi tel.: (62) 224-65-09